

"O'ZMILLIYBANK" AJNING 2025 YIL NATIJALARI BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN KORPORATIV BOSHQARISH TIZIMINI BAHOLASH HAQIDAGI XULOSA.

"O'zmilliybank" AJ (keyingi o'rinlarda - Jamiyat)ning korporativ boshqaruv tizimini baholash to'g'risidagi xulosa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 08.09.2022 yildagi 03802223-sonli, investitsiya maslahatchisi faoliyatini amalga oshirish haqidagi xabarnomani qabul qilganligi to'g'risidagi tasdiqnomaga asosan faoliyat yurituvchi "Winvestment Consult" MChJ (keyingi o'rinlarda – mustaqil tashkilot) investitsiya maslahatchisi tomonidan tayyorlangan.

Baholashning asosiy maqsadi Jamiyatdagi korporativ boshqaruv tizimining holati to'g'risida mustaqil ob'ektiv fikrni shakllantirishdir.

Jamiyatdagi korporativ boshqaruv tizimini baholash O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi (*hozirgi kunda - O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi*) va Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markaz tomonidan 2016 yil 25 iyulda tasdiqlangan Savolnoma asosida amalga oshirildi.

Korporativ boshqaruv tizimini baholash Jamiyat tomonidan taqdim etilgan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oshkor qilingan ma'lumotlar asosida amalga oshirildi. Jamiyat taqdim etilgan hujjatlar, hisobotlar, ma'lumotlar va boshqa materiallarning to'liqligi, mazmuni va ishonchliligi uchun javobgar hisoblanadi. Olingan hujjatlarning, ma'lumotlar va boshqa materiallarning asl nusxaliligi va ishonchliligi tekshirilmadi hamda bahslashilmadi.

Mustaqil tashkiloti faqat Jamiyat tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanib, Jamiyatdagi korporativ boshqaruv tizimini baholash bo'yicha o'z fikrlarini bildirish uchun javobgardir.

Jamiyat tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, shu jumladan ichki korporativ hujjatlar, hisobotlar va boshqa ma'lumotlar Jamiyatdagi korporativ boshqaruv holati to'g'risida mustaqil fikrni shakllantirish va ifoda etish uchun etarli asos yaratdi.

Baholash natijalariga ko'ra, "O'zmilliybank" AJning korporativ boshqaruv tizimining darajasi **yuqori** deb tan olingan va korporativ boshqaruv tizimi darajasini baholashning yakuniy natigasi **985 ball** yoki mumkin bo'lgan maksimal natijaning **82%** tashkil etadi.

“O‘zmilliybank” AJ
korporativ boshqaruv tizimini baholash bo'yicha yig'ma jadvali

№	Yo'nalishlar	Savollar soni	Berilishi mumkin bo'lgan ballar		Haqiqiy baho
			minimum	maksimum	
1	Korporativ boshqaruv Kodeksini joriy qilishga tayyorlanish holatini baholash	13	-135	135	110
2	Korporativ boshqaruv Kodeksi tavsiyalariga amal qilinishini baholash	37	-360	360	280
3	AJ tashkiliy tuzilmasi muvofiqligini baholash	3	-30	30	30
4	Tanlov o'tkazilishini baholash	5	-45	45	15
5	XMHS va auditning xalqaro standartlariga muvofiq tarzda e'lon qilishga o'tishni baholash	3	-50	50	50
6	Zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy qilishni baholash (ISO, ERP, NIOKR va boshqalar.)	5	-55	55	55
7	Axborot siyosatini baholash	5	-170	320	320
8	Moliyaviy natijalarni baholash	4	-150	150	150
9	AJ faoliyatining boshqa yo'nalishlarini baholash	25	-205	55	-25
	Jami	100	-1200	1200	985

Baholash natijasi foizda

82%

Rahbar

X.Toxtayeva



Xulosa chiqarilgan sana: 2026/05/14